

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

FOLKLOR QO'SHIQLARINI TANLAB OLISHDA QO'YILADIGAN METODIK TALABLAR

Nurullayev Y.F.

Buxoro Psixologiya va Xorijiy Tillar Instituti.

Musiqa ta'limi yo'nalishi II-bosqich magistranti.

Nurullayev F.G.

Ilmiy rahbar- P.f.f.d (PhD) prof. Bux DPI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada folklor yoki o'zbek xalq qo'shiqlarini tanlab olishda qo'yiladigan metodik talablar haqida ma'lumotlar mavjud. Folklor qo'shiqlarining yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashdagi o'rni xaqida bayon etilgan. O'zbek folklor qo'shiqlari musiqa san'atimizning qalb memori ekanligi yana bir bor maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Folklor, xalq qo'shiqlari , musiqa , san'at, yosh avlod, tarbiya, odob-axloq.

Аннотация: В данной статье содержится информация о методических требованиях к отбору фольклорных или узбекских народных песен. Описана роль фольклорных песен в воспитании молодого поколения как совершенной личности. В статье еще раз отражено то, что узбекские народные песни являются скульптором души нашего музыкального искусства.

Ключевые слова: Фольклёр, народные песни, музыка, искусство, молодое поколение, образование, нравственность.

Yosh avlodning hayot va san'atdagi go'zalliklarni teran idrok etishlari, ularning estetik tuyg'u va badiiy didlarini o'stirishda adabiyot, madaniyat va san'at katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham pedagogika fani, ta'lim amaliyotida o'ziga xos maktab yaratgan mashhur olimlar va tarbiyachilar yosh avlodga beriladigan bilimlar tizimida estetik mazmun va mohiyat kasb etuvchi bilimlarga alohida ahamiyat bergenlar. Ular estetik tarbiyaga daxldor har bir mashg'ulot shaxsning barkamol

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

rivojlanishiga samarali ta'sir o'tkazishini ta'kidlaganlar.

Xalqning tarixiy taraqqiyoti mobaynida yaratilib kelinayotgan san'atning, uning sarchashmalaridan bo'lgan xalq og'zaki ijodi namunalari, qo'shiqlar va musiqaning yoshlar estetik didi va tuyg'usini, dunyoqarashini o'stirishdagi ahamiyati beqiyosdir. Hayotning betakror qirralari va ijod ahlining lirik kechinmalarini o'zida aks ettirgan folklor qo'shiqlari o'quvchilarning ongida ham nozik kechinmalarni uyg'otib, ularni go'zallik olamiga olib kirishi, go'zallikka mehr-muhabbat uyg'otib, o'qishda va mehnatda faollikka ruhlantirishi shubhasizdir.

Har bir inson bolaligidan boshlab san'at og'ushida yashaydi. Uning qulog'iga kiradigan birinchi san'at namunasi ona allasidir. Ona allasi esa dunyodagi barcha xalqlarning eng ajoyib va mumtoz asari, asrlar osha qadri oshadigan, insoniyat yashar ekan, har bir davrda ham aziz bo'lib qoladigan beba ho qo'shiqdirki, buning sehrini bilmagan odamning o'zi yo'q. Insonni go'dakligidayoq san'atning sehrli olamiga ilk mehrini uyg'otadigan va umrbod unga oshno qilib qo'yadigan ham ana shu ona allasidir. Shunday ekan, bolada go'dakligidayoq nish ura boshlagan bu ezgulikni ulg'aygan sari kuchaytira borish kerak bo'ladi.

Demak, estetik tarbiyaning xalq qo'shig'i shaklidagi birinchi omili bu ona allasidir. Ayniqsa, o'zbek onalarining allasi ma'naviy-ruhiy jihatdan o'ta ta'sirchan vositadir.

Inson ulg'aya borgan sari uning g'oyaviy, axloqiy va madaniy saviyasi shakllanishiga imkon oshib boradi. Estetik saviyaning shakllanishi va rivojlanishi ham ana shu jarayon bilan birga kechadi. Bu, o'z navbatida, tarbiyaning barcha jihatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yuksak insoniy dunyoqarashning shakllanishi bilan uyg'unlashib ketadi. Shuning uchun ham o'quvchilarga estetik tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagog- tarbiyachilar bu ishning umumlashgan holda olib borilishi zarurligini unutmasliklari kerak. Bu, ayniqsa, umumiyl o'rta ta'lim maktablarida estetik tarbiya bilan shug'ullanadigan o'qituvchilarga taalluqlidir.

Ayni paytda e'tirof etish joizki, folklor qo'shiqlarining barchasi ham estetik tarbiya vositasi sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiq bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham muayyan guruhning qiziqishlari, ehtiyojlari, estetik saviyalari, mahalliy

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

muhit va an'analarni qat'iy tarzda, e'tiborga olgan holda estetik tarbiya vositasi sifatida qo'llaniladigan folklor qo'shiqlarining mazmuni, ko'lамини muayyan pedagogik talablar asosida tanlab olish talab etiladi.

O'zbek xalqining turli mavzulardagi qo'shiqlari vositasida o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashda qo'llaniladigan namunalarini saralash mezonlari nimalarga, qanday talablarga asoslangan holda ishlab chiqiladi? Xalqimizning badiiy-musiqiy merosida yaxshi qo'shiqlar ko'p. Ular ko'p asrlardan beri yillar sinovidan o'tib, turli avlod vakillariga munosib xizmat qilib kelyapti. Bunday qo'shiqlar ko'plab avlod tomonidan kuylanib, bugungi kunda ham xalqimizga zavq-shavq bag'ishlamoqda.

Qo'shiq san'ati haqida fikr yuritilganda uning tarkibiy tuzilishini yaxshi o'rganish juda muhimdir. Qo'shiqning estetik ta'sir kuchi va xarakteri shu qismlarning har birida, ayni vaqtda ularning o'zaro bog'liqligi va yaxlit holdagi ta'siri bilan belgilanadi. Shu ma'noda qo'shiqning musiqiy ohangi uning eng muhim jihatni hisoblanadi. Ohangda qo'shiqning g'oyaviy-badiiy mazmuni o'ziga xos usulda, musiqiy tovushlar shaklida ifodalanadi. Ohang qo'shiq mazmuniga mos bo'lishi lozim. Ohang betakror, unda rang-barang nozik tovushlar, usullar, ifodalash vositalari uyg'unlashgan bo'ladi. Ohang faqat lirik, zavqli tuyg'ular uyg'otmaydi, u g'amgin, achchiq, iztirobli, mungli kayfiyat uyg'otishi ham mumkin. Sevgi haqidagi ko'plab qo'shiqlarda sevgisiga yetisholmagan oshiq-moshiqlarning ohu-nolalari, orzu-armonlari, go'zal ihtiroslari aks etishi fikrmizning dalili bo'la oladi. Demak, ohang hayotning shodligi-yu, g'am-alami, ayrilik'ini ifodalovchi qo'shiq mazmuniga bog'liq bo'ladi. Shundan kelib chiqib, qo'shiq matni bilan ohangining munosib, muvofiqligini bosh mezon sifatida e'tirof etish mumkin.

Kuyni musiqa bilan ta'minlash ham estetik ahamiyat kasb etib, u qo'shiq san'ati qudratida katta o'rin tutadi. Qo'shiq kuyining qaysi musiqa asboblari bilan ijro etilishi ham yuqoridagi jihatlardan biridir. Qo'shiqning yuqori badiiy saviyada ijro etilishi uning estetik ta'sirini oshiruvchi muhim omildir. Ifodalilik, yaxshi ovoz, qo'shiqning matni va uning g'oyaviy mazmuni tarbiyaviy ta'sirning eng kuchli vositasidir. Qo'shiq san'ati tarkibidagi yana bir muhim jihatni bu xonandalarning ijrochilik mahoratidir.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Qo'shiqni ijro etishda birinchi galda ohang jozibadorligiga, ovozning musiqiyligiga erishish kerak. Ijrochi shu ohangdor musiqiylikdan mohirona foydalanib, yuksak ijrochilik mahoratiga ega bo'lishi, qo'shiq ohangidagi sirni farqlay olishi kerak. Xonandaning dildan jo'shib kuylashi estetik tarbiyada qo'shiq san'atiga yoshlarni oshufta qilishning zarur shartlaridan biridir. Demak, qo'shiqchilikda bu san'atning barcha tarkibiy jihatlari uyg'unlashgandagina u yoshlarni estetik va ahloqiy tarbiyalashning muhim vositasiga aylanadi. Ko'rib o'tilgan jihatlarning birontasida buzilish sodir bo'lsa, uning estetik qiymati yo'qolib, ta'siri kamayadi. Shu bois folklor qo'shiqlarini tanlab olishda yuqorida ta'kidlab o'tilgan jihatlarga javob beruvchi omillar, mezonlar inobatga olinishi shart.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi badiiy havaskorlik darslarida folklor qo'shiqlari bilan ishslash uchun, avvalo, dars ishtirokchilarining, musiqa-ashula o'qituvchilarining hamda darslarning badiiy rahbarlari ishini shunday tashkil qilish lozimki, unda o'quvchilar badiiy havaskorlik darslarida folklor qo'shiqlari bilan tanishib, ularni o'rganishi, tinglashi, ayrim qo'shiqlarga bag'ishlangan suhbat, taniqli xonandalar bilan uchrashuv kechalarida qatnashishlari jarayonida qo'shiqda ifodalangan badiiy obrazlar, his-tuyg'ular og'ushida o'zini sezishini ta'minlash lozim. Kuy-qo'shiqlardagi sehrli joziba, ezgulikka chorlovchi musiqiy ohanglar idrok etuvchining xayolida, kechinmalarida, estetik hissiyotida qayta ishlanib, uning o'z tajribasiga aylanadi, yangi hissiyotlarni, insoniy tuyg'u va munosabatlarni vujudga keltiradi. Shu jihatdan musiqa to'garaklari oldida o'quvchilarda folklor qo'shiqlariga nisbatan muayyan munosabat, qiziqish, havas, pirovard natijada muayyan mahorat ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa qilib qo'yilishi zarur. Folklor qo'shiqlari vositasida san'atning ijtimoiy roli va vazifasi yaxlit tasavvur qilinishi natijasida o'quvchilar ma'naviy olamidagi o'zgarishlar, yangi jihatlar paydo bo'lishi jarayoni tezlashadi.

Bo'lg'usi pedagoglarni folklor qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash bir qancha maqsadlarni ko'zda tutadi. Bizningcha, badiiy havaskorlik, ashula darslariga jalb etilgan o'quvchi yoshlari bilan bu borada ish olib borishda, avvalo, quyidagi jihatlarga alohida ahamiyat berish lozim:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

1. O‘zbek folklor qo‘shiqlari va kuylari yoshlarning ma’naviy olamiga emotsiyal ta’sir ko‘rsatishi va bu borada yetarlicha samara berishiga erishish.
2. San’at bilan voqelikning ijtimoiy roli va ahamiyatini ta’kidlagan holda ularning sertarmoq turlarida folklor qo‘shiqlarining o‘rnini, badiiy qimmatini, umummadaniyatimizdagi mohiyatini to‘g‘ri anglab olishga ko‘maklashish.
3. O‘quvchilarda san’atga oid bilimlarni mustahkamlash bilan birga ularda bu boradagi yengil-yelpi, mazmunan sayoz, ta’sirsiz va chet el ohanglariga solib aytilgan, o‘zbek musiqa madaniyati an’analariga zid bo‘lgan qo‘shiqlarga nisbatan murosasizlik tuyg‘ularini hosil qilish.
4. O‘quvchilarni folklor qo‘shiqlarini ma’naviy-axloqiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tomondan to‘g‘ri baholay olish, ularning tarbiyaviy xususiyatlarini anglashga o‘rgatish.
5. Maqsad folklor qo‘shiqlari bilan ishslash bo‘lsa-da, o‘quvchilarda san’atning boshqa turlariga ham mehr-muhabbat uyg‘otish, ularning umumiyl madaniy saviyasini kengaytirish.
6. Xalq qo‘shiqlaridagi nazmiy matnning mazmunini tarbiyaviylik nuqtai nazaridan tahlil qilib uni talabalar ongiga to‘laligicha yetkazish.

O‘quvchilarni estetik tarbiyalash jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan pedagogik omillarni inobatga olish ko‘zlangan maqsadga erishishni kafolatlashi mumkin.

O‘quvchilarga estetik tarbiya berishda boshqa vositalar qatorida xalq san’atining eng ommaviy va ta’sirchan turlaridan bo‘lgan folklor qo‘shiqlarining roli va ahamiyati beqiyos bo‘lgani holda, ulardan foydalanishda ham o‘ziga xos me’yorlar bo‘lishi lozim. O‘quvchilarga har qanday xalq qo‘srig‘ini, termasini, laparlari va o‘lanlarini, maqom yo‘llarini, uning sho‘balarini o‘rgataverish, mashg‘ulot va konsert repertuarlariga kiritaverish yaramaydi, albatta. Bunda barcha ishlar maqsadga yo‘naltirilgan holda muayyan pedagogik asos, pedagogik aprobatsiyadan o‘tgan metodika zamirida olib borilishigina kutilgan samarani berishi mumkin. Shuning uchun ham bu borada birmuncha ishlar amalga oshirilishi kerak bo‘ladi. Bular, o‘z navbatida, estetik tarbiya sohasidagi bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalar jumlasiga

kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo'raev M. Folklorshunoslik asoslari. (O'quv qo'llanma). –T.:Fan, 2009. – 192 b.
2. Jo'raev M. O'zbek mavsumiy marosim folklori. (O'quv qo'llanma). –T.: Fan, 2009. – 294 b.
3. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
4. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
5. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
6. F.G.Nurullayev O 'QUVCHILARGA BOLALAR FOLKLOR QO 'SHIQLARINI O 'RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. PEDAGOQS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL Vol. 75 No. 1, 2025. 148-152
7. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
8. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. Б.175-180.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
10. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

11. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Renabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.

12 Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.

13. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш. Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий-назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111.

14. Нуруллаев Ф.Г. Из истории смычковых инструментов у мастеров Амати Николо, Гварнери и Страдивари. Материалы международного научно-творческого форума. Часть 1- Челябинск, 2016.-С.158-159

15. Нуруллаев Ф.Г. Особенности и условия развития творческих музыкальных способностей детей. Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. г. Ярославль, Выпуск №17, 2018. – С.125-128.

16. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.

17. Xujayev Dilmurod Bakiyevich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich-
MAVRIGI VA BUXORCHA KONSEPTSIYASI TAMOYILLARI BUXORODA QAROR TOPISHI, International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 2024/4/30, Том-5, 1, 515-520 betlar

18. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN:2181-1601, 2021.pp.570-575.

19. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.

20. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Children.European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 Accepted 14 May2022.

21. F.Nurullayev. "Musiqa ta'limida Buxoro folklor qoshiqlarini orgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari"- (PhD) Diss.ishi. 2021y

22. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.

23. Нуруллаев Ф.Г. Содержание обучения бухарским народным песням в музыкальном образовании// Academy, № 3 (66), 48-50, ООО «Олимп».

24. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.589-595.

25. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы STEAM// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.595-602.

26. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.957-963.

27. Istatov Muhriddin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich-
MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA
<https://conferencea.org> January 30th, 2024, Conferencea 1 (1),74-78

28. F.G. Nurullayev, Firdavs To'xtayev-MUSIQIY TOVUSHLARING XUSUSIYATLARI TENDENTSIALARI. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1,Tom-2,12, 8-15 betlar

29. F.G.Nurullayev, Xasanova Gulchehra Saidovna-FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH THE

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

MEANS OF UZBEK FOLK SONGS, International journal of artificial intelligence,
ISSN: 2692-515X 2024/11/3

30. Egamov O.S., Nurullayev F.G., **BUXORO VOHASI FOLKLOR QO ‘SHIQ LARI O ‘ZBEK XALQINING BOY MEROSI SIFATIDA**. Confrencea, 1(1), 2024.123–130.R. <https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/1207>